Interpretation Of The Phenomenon Of Heroicity In Homer's Epistle "ILIADA": The Example Of The Images Of Achilles And Hector

Salimjonova Dilnavoz Kamolddin qizi

FarSU, Faculty of Philology, Uzbek language

1st year student

Abstract

This article analyzes the concept of heroism in the epic poem "Iliad" through the images of Achilles and Hector. The author compares the character of ancient heroes with the figures of Alpomish and Jaloliddin Manguberdi in Uzbek literature and history. The article covers the issues of personal pride and social duty based on the views of Uzbek and world scientists.

Keywords: Homer, Iliad, Achilles, Hector, courage, duty, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, epic thought.

Annotatsiya

Ushbu maqolada "Iliada" dostonidagi qahramonlik tushunchasi Axill va Gektor obrazlari orqali tahlil qilinadi. Muallif antik qahramonlar xarakterini o'zbek adabiyoti va tarixidagi Alpomish hamda Jaloliddin Manguberdi siymolari bilan qiyoslaydi. Maqolada shaxsiy g'urur va ijtimoiy burch masalalari o'zbek va jahon olimlarining qarashlari asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Gomer, Iliada, Axill, Gektor, mardlik, burch, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, epic tafakkur.

"Adabiyotshunoslikda obraz tushunchasi san'atning o'ziga xos tili bo'lib, u dunyoni inson timsoli orqali aks ettiradi. Xususan, qahramonlik obrazi o'zida jasorat va olijanoblikni mujassam etgan shaxs tasviridir. Bunday obrazlar, odatda, xalq taqdiri hal qilinayotgan palla yoki shon-sharaf maydonida namoyon bo'ladi [1, 207-b]. Axill va Gektor antik davr adabiyotidagi qahramonlik obrazining eng yorqin misollaridir. Ular o'zlarining mardligi, or-nomusni hamma narsadan ustun qo'yishi va fojiviy qismati bilan qahramonlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirgan.

Gomerning "Iliada" dostoni jahon adabiyoti tarixida qahramonlik eposining ilk va eng mukammal namunasi sifatida e'tirof etiladi. Asar shunchaki Troya urushi epizodlarini emas, balki insonning hayot va o'lim, shon-sharaf va burch o'rtasidagi axloqiy tanlovlarini badiiy gavdalantiradi. Antik davr olimi Aristotel o'zining "Poetika" asarida eposning fojiviy qahramoni haqida to'xtalar ekan, uning ham insoniy fazilatlarga, ham o'ziga xos "fojiviy ayb"ga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi [3]. Gomer qahramonlari o'z harakatlari bilan insoniyatning mardlik haqidagi ilk tasavvurlarini shakllantirganlar.

"Iliada"da qahramonlik — bu shunchaki jismoniy ustunlik emas, balki taqdirning qat'iy hukmiga qarshi inson irodasining namoyon bo'lishidir. Axill antik dunyo tushunchasidagi "kleos" (boqiylikka eltuvchi shon-sharaf) timsolidir. U o'zining fojiviy qismatini — yosh o'lishini bilsada, shonli o'limni uzoq va mazmunsiz hayotdan ustun qo'yadi. Axillning xarakteri murakkab: bir tomondan u o'z shaxsiy g'ururi uchun butun qo'shinni xavf ostiga qo'yuvchi mag'rur jangchi bo'lsa, ikkinchi tomondan, do'sti Patrokl uchun o'zini jangga otgan sadoqatli do'stdir. Mening fikrimcha, Axillning bu isyonkor ruhiyati o'zbek xalq dostonidagi Alpomish obraziga juda yaqin. Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov ta'kidlaganidek, epos qahramoni uchun shaxsiy nomus va mardlik tushunchasi hayot-mamot masalasidir [4]. Alpomish ham xuddi Axill kabi o'z haq-huquqi kamsitilganda or-nomusini himoya qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Har ikki qahramon ham shaxsiy manfaat va jamiyat manfaati to'qnash kelganda, avvalo, o'z shaxsiyatini tasdiqlashga intiladi.

Gektor esa Axillga qarama-qarshi o'laroq, jamoaviy qahramonlik modelini aks ettiradi. U shaxsiy istaklari uchun emas, balki Troya xalqi, oilasi va vatanining kelajagi uchun jang qiladi. Uning jasorati insoniy zaifliklarni va o'lim vahimasini yengib o'tgan mas'uliyat hamda axloqiy burch qahramonligidir. Dostonda Gektorning rafiqasi Andromaxa bilan xayrlashish sahnasi uning qahramonlik darajasini yanada yuksaltiradi. U o'z oilasini sevadi, ammo vatan oldidagi burchi uni jang maydoniga yetaklaydi. Gektordagi bu xislat tariximizdagi buyuk siymo — Jaloliddin Manguberдини yodga soladi. O'zbek olimi I.Karimov antik adabiyot haqidagi tadqiqotlarida Gektorni "vatan tayanchi" deb ataydi [5]. Manguberdi ham xuddi Gektor kabi dushmanning son jihatdan kuchi ko'pligini bilsa-da, orqaga chekinmaydi. Gektorning Troya devorlari oldidagi so'nggi jangi va Manguberding Sind daryosi bo'yidagi jasorati — bu o'z xalqi uchun jonini fido qilgan mardlarning umuminsoniy ramzidir.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Axill va Gektor o'rtasidagi to'qnashuv nafaqat ikki jangchining, balki ikki xil dunyoqarashning kurashidir. Axill — individual qalbning isyoni, Gektor esa xalq oldidagi sadoqat timsolidir. Aristotel nazariyasiga ko'ra, Gektorning fojiasi uning burchiga sodiqligidadir, Axillning fojiasi esa o'z qudratining asiriga aylanishidadir.

Gomer o'z asarida troyalik qahramonni grek qahramonidan kam bo'lmagan mehr bilan tasvirlaydi. Bu esa o'zbek va jahon adabiyotshunosligida insoniylikning millat tanlamasligini isbotlaydi. Xulosa qilib aytganda, "Iliada" dostonida qahramonlik fenomeni shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Qodir Mirmuhammedovning o'zbek tilidagi mahoratli tarjimai antik ruhni milliy adabiyotimizning ajralmas qismiga aylantirdi [2]. Axill orqali shaxsiy qadr-qimmat, Gektor orqali esa vatan oldidagi muqaddas burch g'oyasi bugungi avlod uchun ham o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Quronov D., Mamajonov Z., Sheralieva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 207 b.
- Халилова, Л. (2024). Проблемы обучения диалога на занятиях иностранного языка. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 737-739.
- Халилова, Л. (2022). ФОРМИРОВАНИЕ НАВЫКОВ ДВУЯЗЫЧИЯ И РОЛЬ ДИАЛОГА В НИХ. Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала академических исследований, 2(2), 716-719.
- Khaydarov, N., & Ramanova, D. (2024). COMPREHENSIVE STUDY OF BURNOUT SYNDROME IN NURSES. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (February 23 2024; Amsterdam, Netherlands), 284-286.
- Khaydarov, N. K., Ramanova, D. Y., & Usmanbekova, G. K. (2021). MANIFESTATIONS OF BURNOUT SYNDROME IN LISTENERS OF NURSING ADVANCED TRAINING COURSES. Журнал " Медицина и инновации", (4), 86-90.
- Mamirova, D. (2026). SOCIOLINGUISTIC RESEARCH OF ADVERTISING TEXTS. Asian journal of scientific research and innovations, 1(1), 155-157.
- Shirinboyevna, M. D. (2024). NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(2), 39-42.
- Mamirova, D. (2024). REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 2(1), 45-47.
- Mamatkulov, Z. S. S. B. M., & Abdurakhimov, B. A. (2022). Features of Morbidity of Workers in the Copper Industry.
- Askarov, O. O., Abdurakhimov, B. A., & Janani, V. (2023). RESULTS AND SURVEYS ABOUT AWARENESS OF THE MITRAL VALVE PROLAPSE.

- Shodikhanov, S. (2025). SEMANTIC AND LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF MILITARY TERMINOLOGY IN UZBEK, RUSSIAN, AND ENGLISH.
- Shodikhanov, S. (2026). Cross-Linguistic Perspectives On Military Terms: Uzbek, Russian, And English. *Stanford Database Library of International Journal Of Literature And Languages*, 6(01), 195-197.
- Тагаева, Т. (2025). The system of personages in WS Maugham's works. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 116-118.
- Tagayeva, T., & Amanova, S. (2024). Stylistic Peculiarities of Literary Text in Creative Works of Bernard Shaw. 2024: Humanistic Role of Language and Literature in the Contemporary Globalization.
- Rajapbayevna, A. N. (2026). TA'LIM TIZIMIDA GENDER PARADIGMALARINING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar jurnali*, 8(01), 431-435.
- Doniyor og'li, T. I., & Rajabbayevna, A. N. (2026). YURAK—HAYOT DVIKATELI VA UNING METABOLIK YOQILG'ISI: FIZIOLOGIK, BIOKIMYOVA VA PROFILAKTIK ASOSLARI. *SHOKH LIBRARY*, 1(1).
- Maxamatjanova, N. M., Mirxaydarova, F. S., & Mirxaydarova, S. M. (2023). DEPRESSIYA RIVOJLANISHIDA QANDLI DIABETNING AHAMIYATI. *Академические исследования в современной науке*, 2(7), 19-20.
- Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 186-192.
- Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. *Мировая наука*, (1), 6-8.
- Murodbek, A. (2026). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA URUSH VA TINCHLIK KONSEPTUAL TAHLILINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 2(7), 429-433.
- Murodbek, A. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "URUSH" VA "TINCHLIK" KONSEPTLARI ORQALI INSONIYLIK, EZGULIK VA ADOLAT G'OYALARINING BADIY IFODASI. *YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI*, 1(4), 348-351.
- Sattorqul o'g'li, A. I., & Furqatovna, N. D. (2025). TEACHING SPEECH ACTS AND INTONATION AS MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION TO ACTION. *TADQIQOTLAR*, 76(7), 181-183.
- Sattorqul o'g'li, A. I., & Furqatovna, N. D. (2025). TEACHING SPEECH ACTS AND INTONATION AS MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION TO ACTION. *TADQIQOTLAR*, 76(7), 181-183.
- Zafarovna, A. M., & Raxmiddinova, O. M. (2024). The Use of Modern Educational Technologies in the Process of Teaching Foreign Languages. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 324-326.
- Zafarovna, A. M. (2025). AUTONOMOUS LEARNING: FOSTERING INDEPENDENCE IN LANGUAGE STUDENTS. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR*, 2(1), 151-153.
- Narzikulova, R. (2022). Peculiarities of 20th century english literature and main characteristics. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(1), 247-250.
- Narziqulova, R. About the Great English Writer George Orwell. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(4), 29-32.
- Jahonovna, S. S., & Avazbekovna, I. M. (2024). The Importance of Terminology in the Study of Specialized Language. *Science and innovation*, 3(Special Issue 19), 279-282.
- Шомуродова, Ш. Ж. (2010). Теоретические предпосылки фразеологической деривации. *Вестник Челябинского государственного университета*, (22), 148-150.

- Akhmedova, M. K., & Khamidullaeva, M. (2024). Chet tilini o'qitishda psixologik omillarning o'rni. *ilmiy tadqiqot va innovatsiya*, 3(1), 39-43.
- Jalolov, J. J., & Makhkamova, G. T. (2015). *Sh. S. Ashurov English Language Teaching Methodology (theory and practice)*.-T.: "Fan va texnologiya".
- Gomer. *Iliada*. (Tarjimon: Q. Mirmuhammedov). – T.: Sharq, 1988.
- Aristotel. *Poetika*. (Tarjimon: U. To'ychiyev). – T.: Yangi asr avlodi, 2011.
- Quronov D. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – T.: Fan, 2007.

Classification Of Images In Ancient Greek Myths And Legends

Solijonova Mukhtaramoy

Student of Fergana State University

Abstract

This article analyzes Greek myths and mythological images and their distinctive features. The role and significance of myth in fiction is highlighted.

Keywords: mythology, Greek myths, legend, Zeus, Uglen and Umay, Tree of Life, Nargiz flower.

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yunon miflari va mifologik obrazlar tahlili va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Mifning badiiy adabiyotdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: mifologiya, yunon miflari, afsona, Zevs, Uglen va Umay, Hayot daraxti, Nargiz guli haqida.

Mif (yunoncha – mythos – afsona, rivoyat, asotir) – qadimgi odamlarning borliq, olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, inson, o'simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budlar va ilohlar to'g'risidagi e'tiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo'lgan ongsiz munosabati ifoda etgan bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Qadimgi odamning olam haqidagi tasavvurlarini o'zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo'ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo'lib, asosan, jonli, og'zaki ijro orqali, ya'ni so'z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag'zini tashkil etuvchi ramziy xatti-harakatlardan iborat ritual o'yinlar sifatida ham namoyish qilingan.

Mifologik qarashlar faqat Yunonlarda emas balki, turkiy xalqlarda ham keng ommalashgan. Qadimgi turklar bir nechta daraxtni muqaddas deb bilishgan. Biroq ular orasida eng afzal ko'rilgani qayin bo'lgan. Hatto har bir shaman marosimida qayin daraxti mavjud bo'lishi bunga dalildir. Shamanistik mifologiyaga ko'ra, qayin daraxti yerga kelishi Xudo Uglen va Umay bilan birga sodir bo'gan [1.1]. Turk – Altay mifologiyasiga ko'ra, Ko'k tangri yerga hukmronlik qilishi va insoniyatni boshqarish uchun yangi avlod yaratishga qaror qilgan.

Turk mifologiyasida qayin daraxtiga yuklangan yana bir ma'no - bu "Hayot daraxti" dir. Altay afsonalariga ko'ra, 12 qavatigacha ko'tarilgan dunyo tog'ining ustida bir qayin daraxti bor. Afsonada qayin daraxti turklarning muqaddas "Ko'k qayinlari" sifatida tilga olinadi.

Turk va Yunon mifologiyalarida daraxtlar va hayvonlar muhim o'rin tutadi. Qayin daraxti turklar uchun hayot va abadiyat ramzi bo'lsa zaytun daraxti yunonlar uchun tinchlik va farovonlikni anglatadi. Har bir madaniyatning geografik sharoitlari ularning mifologiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turk mifologiyasida tog'lar, dashtlar va o'rmonlar muhim ro'l o'ynaydi, yunon mifologiyasida esa dengiz va uning atrofidagi resurslar asosiy o'rinni egallaydi. [1.2]

Bundan tashqari yunon va turkiy xalqlar mifologiyasida oliy xudolar asosiy o'rinni egallaydi. Masalan, Zevs — yunon afsonalarida oliy xudo; xudolar va odamlar hukmdori. Kronos va Reyaning o'g'li. Xudolarning uchinchi avlodiga mansub. Tartarda o'z otasi va boshqa titanlarni yengib, Olimp tog'ida hukmron bo'lgandan keyin zevs astasekin olamni qaytadan tuzadi, xudolarni yaratadi, qonunlar chiqaradi, tartib o'rnatadi, fan, san'at, axloq me'yorlari va hokazoni joriy etadi. Zevs xudolarning irodasini va yaxshi niyatlarini ro'yobga chiqaruvchi ko'plab qahramonlar (Gerakl, Persey) ning otasi. Ayni vaqtda zevs — dahshatli jazolovchi kuch. U bir necha marta odam zotini yo'q qilib, undan ham mukammal insonni yaratishga

urinadi. Zevs to'g'risidagi afsonalarning ayrim qismlari "Iliada", "Odisseya" va boshqa antik asarlarda bor. Qadimgi Rim afsonalarida zevs Yupiterga to'g'ri keladi.[1]Turkiy xalqlarda esa Turk mifologik tasavvurlarida Ko'k Tangri koinotning asosiy yaratuvchi kuchi sifatida qaraladi va ayrim mifologik rivoyatlarda Kayra Hanning otasi sifatida tilga olinadi. Yer osti olamining hukmdori sifatida Erlik (Erlik Han) yovuzlik va zulmat timsoli sifatida tasvirlanadi.Osmonning yuqori qatlamlaridan birida yashovchi Ulgen esa ezgulik va yorug'lik bilan bog'liq iloh sifatida qaralib, ayrim rivoyatlarda Kayra Hanning o'g'li sifatida tilga olinadi. Turk va mo'g'ul mifologiyasida Barak Ata nomi bilan mashhur bo'lgan, mo'g'ullar kelib chiqishi bilan bog'langan afsonaviy mavjudot ham tilga olinadi. Ushbu obraz ayrim manbalarda Nokay Echege nomi bilan ham uchraydi.Umay ona turk mifologiyasida tug'ilish, hosildorlik va farzandlarni himoya qiluvchi iloh sifatida tasvirlanadi. Rivoyatlarga ko'ra, u oq libosli ilohiy mavjudot sifatida tasavvur qilingan va yangi tug'iladigan bolalarni himoya qiluvchi ruh hisoblangan. Ulgen, Umay va Barak Ata ayrim mifologik an'analarda keyinchalik ilohiyashtirilgan timsollar sifatida tasvirlangan. Turk mifologik qarashlarida quyosh timsolini ifodalovchi ilohiy obraz, Mayg'il suvlar bilan bog'liq ilohiy timsol, Elbis esa ayrim rivoyatlarda urush va jangovar kuch bilan bog'liq mifologik obraz sifatida tilga olinadi. [2]

Har ikki mifologiyada ham olamning yaratilishi, kosmos va kaos qarama-qarshiligi asosiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Yunon mifologiyasida dastlab Xaos mavjud bo'lib, undan tartibli kosmos paydo bo'ladi¹. Turkiy mifologiyada esa olam ko'pincha suv yoki bo'shliqdan yaraladi, masalan, O'g'uznoma rivoyatlarida borliq ibtidosi suv bilan bog'lanadi².Bu holat shuni ko'rsatadiki, qadimgi inson uchun tabiat hodisalari tushuntirib bo'lmas sirli kuch sifatida idrok etilgan va u miflar orqali izohlangan.Yunon mifologiyasining eng muhim xususiyatlaridan biri — xudolarning antropomorf, ya'ni inson qiyofasida tasvirlanishidir. Zevs, Afina, Apollon kabi xudolar insoniy his-tuyg'ular, ehtiroslar va hatto kamchiliklarga ega³.Turkiy mifologiyada esa ilohlar ko'proq kosmik va abstrakt kuch sifatida talqin qilinadi. Masalan, Tangri — osmon va butun borliqni boshqaruvchi oliy kuch bo'lib, u aniq insoniy qiyofaga ega emas⁴.

Yunonlarning mashhur miflari ko'p qismni tashkil etadi. Hozirgi kunda eng ko'p uchraydigan turi bu "Nargiz" mifi hisoblanadi. Nargiz tug'ilganda taqdiridan fol ochuvchi: "Bu bola o'zini ko'rgungacha yashaydi", deydi. Ushbu bashorat hammaga bema'ni bo'lib tuyuladi. Bola behad ko'rkam bo'lib o'sadi. Ko'rganki bor, uni sevib qolardi. Shulcirdan biri Exo edi. U Nargizning ortidan soyadek ergashadi. Ammo ko'plar qatori rad javobini oladi. Exo alamidan g'orga kirib ketadi va dard chgkib qurib, ovozigina qoladi. Jismi esa toshga aylanadi u yerga kirib gapirsa, faqat exo - aks-sado qaytadi. Hamma to'planib, qasos ma'budasi Nemezidga "Nargizni jazola!" deydi. Nemezid istakni bajaradi,: "Nargiz o'zini sevib, o'ziga yetolmay azob cheksin", deydi. Kunlardan bir kun Nargiz ovdan qaytayotib chanqaydi va suvga boradi. Suvda o'z ak sini ko'rib esa, sevib qoladi. Suvdagi aksga yetolmay, yig'lab iztirob chekadi. Shunday azoblanadiki, axiyr qovjirab quriydi... Odamlar ancha vaqtdan keyin sohilda bir gulni topib olishadi: Oq Nargiz gulni. Bu afsona keyinchalik adabiyotda turfa ko'rinishlarda yashaydi. Chunonchi,Rim shoiri Ovidiy "Metamorfoza" asarida Nargiz gulni qanday paydo bo'lishi haqida batafsil yozadi.

Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashinio'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhimrol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan. Miflarni ilmiy o'rganish Yevropada XVII asrda shakllanib, bu jarayonda mifologik maktablar vujudga kelgani, miflarning tabiati va genezisi borasida konseptual qarashlar yuzaga kelgani tahlil qilindi. Xususan, fransuz faylasufi Bernard le Bovier de Fontenelle miflarni qadimgi inson tafakkurining mahsuli sifatida baholagan bo'lsa, italiyalik olim Giambattista Vico miflarni poetik nutqning arxaik shakli sifatida talqin qilgan. XIX asrda nemis olimlari Johann Gottfried Herder, August Wilhelm Schlegel va Friedrich Schlegel asarlarida ham mifologik dunyoqarashlarning badiiy va

falsafiy talqinlari keng o'rin olgan. Shu bilan birga, miflarni ilmiy o'rganishda o'zbek olimlarining qarashlari ham material sifatida jalb etilib, K.Imomov, O.Safarov, T.Mirzayev, A.Baymiradov, S.Qasqabasov va M.Jo'rayevlarning ilmiy yondashuvlari tahlil qilindi. Bundan tashqari, XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariyning Devonu lug'atit turk asarida mif "sav" atamasi bilan izohlangani mif haqidagi ilk nazariy qarashlar Markaziy Osiyoda shakllanganini ko'rsatadi..

Xulosa qilib aytganda, Qadimgi yunon mifologiyasi insoniyatning qadimiy madaniy va ma'naviy merosining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mif va afsonalar qadimgi yunon jamiyatining dunyoqarashi, diniy e'tiqodlari, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu rivoyatlar orqali qadimgi inson tafakkurining shakllanish jarayoni, tabiat hodisalarini tushuntirishga bo'lgan intilishi hamda inson va koinot o'rtasidagi munosabatlar haqida muhim tasavvurlarni kuzatish mumkin. Shuningdek, yunon mifologiyasi nafaqat diniy yoki folkloriy hodisa, balki qadimgi yunon adabiyoti, san'ati va falsafasining rivojlanishida ham muhim o'rin egallagan. Mifologik syujetlar va obrazlar alohida o'rin egallaydi. Har bir Yunon mifologiyasi obrazlari (Zevs, Appolon) insoniylashtirilgan xudolar orqali hokimiyat, san'at va tartibni ifodalasa, turkiy mifologiya obrazlari tabiat va kosmik kuchlar bilan uyg'unlikni aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

(20-noyabr, 2019-yil). Qaraldi: 26-may 2022-yil.

O'rayeva D, Otajonova M, Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. Fan
ULUG'BEK HAMDAMOV, ABDUG'OPIR QOSIMOV TOSHKENT-2017

Zilola Karimova, Shahrisabz davlat pedagogika institute

Askarov, O. O., Abdurakhimov, B. A., & Janani, V. (2023). RESULTS AND SURVEYS ABOUT AWARENESS OF THE MITRAL VALVE PROLAPSE.

Абдурахимов, Б. А., Тохтаев, Г. Ш. У., Сафаров, Х. Х., & Улмасов, Ж. М. (2023). ПРИНЦИПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ФОТОХИМИОТЕРАПИИ В ДЕРМАТОЛОГИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Academic research in educational sciences, 4(2), 108-127.

Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.

Sidikova, N. N., Vaxidova, A. A., Murtazina, E. I., & Rakhimullina, F. N. (2026). Peculiarities of Personality Value Orientations in a Situation of Uncertainty. ARPHA Proceedings, 11, 657-667.

Sidikova, N. N. (2026). LINGUOCULTURAL REPRESENTATION OF PATRIOTISM IN POETIC DISCOURSE. Modern World Education: New Age Problems—New solutions, 3(2), 64-67.

Sidikova, N. N. (2026). THE CONCEPT OF INDIVIDUALISM IN ROMANTICISM. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 7(01), 351-358.

Siddikova, N. N., Gafforova, S., & Gafforova, I. (2022). APPROACHES TO DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE TEACHING SYSTEM IN NONLINGUISTIC HIGH SCHOOLS OF UZBEKISTAN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 381-388.

Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 186-192.

Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. Мировая наука, (1), 6-8.

Sh, B. S. (2014). Feminism and Korean Literature. ЦЕНТР КОРЕЕВЕДЕНИЯ, 29.

Тулкиновна, Г. А., & Эшбоева, Т. С. (2020). Cognitive analysis of the concept «woman» in the French language. Молодой ученый Международный научный журнал, (30), 320.

- Najmiddinova, M. N. Mehmondo 'stlik" tushunchasiga oid maqollarning pragmatik tahlili. Universal journal of social sciences philosophy and culture".- <https://scienceresearch.uz/index.php/UJSSPC/article/view/286> ISSN, 2992-8834.
- ШУКУРОВИЧ, К. 1 ШЕРМАТОВ/SHERMATOV. Законодательство, 100, 7.
- Тараева, Т. (2025). The system of personages in WS Maugham's works. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 116-118.
- Saidazimkhon, S. (2022). Lexicographical formation and the usage of military terminology in English. In International Conferences (Vol. 1, No. 11, pp. 57-62).
- Begmatov, K. M. (2023). Development of Pedagogical Skills of A Foreign Language Teacher Through Educational Technologies. JournalNX, 9(10), 218-220.
- Begmatov, Q. M. (2020). METHODS OF TEACHING GERMAN AS A SECOND LANGUAGE AFTER FIRST FOREIGN LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (4), 648-651.
- Begmatov, Q. (2019). On the issue of optimizing the teaching of German as a second foreign language in a non-linguistic university. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 29-31).
- Abdijalilovna, E. S. (2022). Educational culture as a social phenomenon.
- Elmuradova, S. A. (2022). CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. Ученый XXI века, (2 (83)), 58-61.
- Elmurodova, S. A., Eshbo'riyev, R., & Haydarov, U. E. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Issue 4 of 2023 (140/1), 4(135), 5-12.
- Urazaliyeva, I. R., Ramanova, D. Y., & Jo'raboyeva, D. N. (2026). EVALUATION OF THE COMBINED PREVENTIVE EFFICACY OF HORMONAL THERAPY AND LIFESTYLE INTERVENTIONS IN WOMEN WITH POLYCYSTIC OVARY SYNDROME. Eureka Journal of Health Sciences & Medical Innovation, 2(1), 672-682.
- Ramanova, D., Urazaliyeva, I., Ishmukhamedova, S., Turayev, B., & Shoyusupova, H. (2020). The importance of family and family values in the formation of a healthy lifestyle. Systematic Reviews in Pharmacy, 11(12).
- Urazaliyeva, I. R., Arslanbekova, N., & Ramanova, D. Y. (2020). ANALYSIS OF THE QUALITY AND EFFICIENCY OF WORK OF VISITING NURSES BASED ON THE MATERIALS OF EXPERT EVALUATION. Новый день в медицине, (4), 330-333.
- Urazaliyeva, I., Mirpayziyeva, M., Usmanbekova, G., Ramanova, D., & Khalilov, S. (2020). Basic rights of a doctor and patient in the Republic of Uzbekistan. Systematic Reviews in Pharmacy, 11(11), 716-720.
- Мирсагатова, Д. Ш., & Раманова, Д. Ю. (2018). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ СЕСТРЫ В ОКАЗАНИИ ПАЛЛИАТИВНОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. In Современная медицина: новые подходы и актуальные исследования (pp. 60-64).
- Tokarev, S. A. Mifologiya narodov mira. Moskva: Sovetskaya entsiklopediya, 1987.
- ABDUG'OPIR QOSIMOV, ULUG'BEK HAMDAMOV Farg'ona – 2023
- H.Abdullayev. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent. Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019.

Factors Of Development Of Logical And Critical Thinking Of Adolescents

Ummatkulova Nigora Umarkulovna

Institute of Family and Gender Research, Doctoral student

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical aspects of the development of logical and critical thinking in adolescence. The important factors in the intellectual development of adolescents, in particular, the role of the educational environment, pedagogical approaches, family influence and modern technologies, are highlighted. Effective methods for developing independent thinking skills in adolescents are also considered.

Keywords: adolescent, logical thinking, critical thinking, thinking, cognitive development, educational environment, pedagogical methods, motivation.

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'smirlik davrida mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. O'smirlarning intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi omillar, xususan, ta'lim muhiti, pedagogik yondashuvlar, oilaviy ta'sir va zamonaviy texnologiyalarning roli yoritib berilgan. Shuningdek, o'smirlarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali usullar ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, tafakkur, kognitiv rivojlanish, ta'lim muhiti, pedagogik metodlar, motivatsiya.

O'smirlik davri inson ontogenezining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, bu davrda shaxsning nafaqat jismoniy, balki aqliy va ijtimoiy rivojlanishi ham jadallik bilan kechadi. Aynan ushbu bosqichda o'quvchilarning tafakkur faoliyati sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarilib, ular abstrakt tushunchalarni anglay boshlaydi, murakkab mantiqiy bog'lanishlarni tushunishga qodir bo'ladi hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan o'smirlik davri shaxsning intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun eng muhim davrlardan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida esa o'quvchilardan nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirish, balki ularni tahlil qilish, baholash va amaliyotda qo'llash qobiliyati talab etilmoqda. Bu esa o'smirlarda mantiqiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi. Mantiqiy fikrlash orqali o'smirlar voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini anglaydi, muammolarni tizimli ravishda hal qilishga o'rganadi. Tanqidiy fikrlash esa ularga turli axborotlarni saralash, ularning ishonchliligini baholash va mustaqil qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan turli innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda o'quv jarayoni hali ham reproduktiv xarakterda bo'lib qolmoqda, ya'ni o'quvchilar tayyor bilimlarni qabul qilish bilan cheklanmoqda. Bu esa ularning fikrlash faolligini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu sababli o'smirlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiruvchi omillarni chuqur o'rganish va ularni amaliyotga samarali joriy etish muhim ilmiy-pedagogik vazifa hisoblanadi.

O'smirlik davrida tafakkur rivoji psixologik jihatdan murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Bu davrda o'quvchilarda abstrakt-mantiqiy tafakkur shakllana boshlaydi, ya'ni ular aniq predmetlar bilan bog'liq bo'lmagan tushunchalar ustida ham fikr yurita oladi. Natijada o'smirlar umumlashtirish, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish kabi murakkab aqliy operatsiyalarni amalga oshira boshlaydi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi ularga nafaqat o'quv

materiallarini chuqur o'zlashtirish, balki kundalik hayotda uchraydigan muammolarni ham samarali hal qilish imkonini beradi. Tanqidiy fikrlash esa ushbu jarayonning yuqori bosqichi bo'lib, u o'quvchining berilgan ma'lumotga nisbatan mustaqil munosabat bildira olishida, uni tahlil qilish va baholashida namoyon bo'ladi.

O'smirlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ta'lim muhitining o'zni beqiyosdir. Agar ta'lim jarayoni faqat ma'lumot uzatishga qaratilgan bo'lsa, o'quvchilar passiv qabul qiluvchi rolda qolib ketadi. Bunday sharoitda ularning fikrlash faolligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Aksincha, muammoli vaziyatlar yaratish, ochiq savollar berish, munozarali darslar tashkil etish o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi. Masalan, biror muammoni hal qilish uchun turli yechim variantlarini taklif qilish, ularni solishtirish va eng maqbulini tanlash o'smirlarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quvchilarni o'z fikrini asoslashga undash tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Pedagogik yondashuvlar ham bu jarayonda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim. U o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi, ularning savollariga ochiq munosabat bildirish imkonini yaratishi va har bir fikrni qadrlashi zarur. Ayniqsa, tahlil va baholashga yo'naltirilgan topshiriqlar (esse yozish, muammoli savollar, loyiha ishlari) o'smirlarning tafakkurini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda faqat bilim emas, balki fikrlash madaniyatini ham shakllantiradi.

Oilaviy muhit ham o'smirlarning aqliy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ota-onalarning bolaga nisbatan munosabati, uning fikrini tinglashi va mustaqil qaror qabul qilishiga imkon berishi o'smirning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Agar oilada bolaga faqat buyruq berilsa yoki uning fikri e'tiborga olinmasa, unda mustaqil fikrlash qobiliyati sust rivojlanadi. Shu bois oilada ochiq muloqot muhiti yaratish, bolani savol berishga undash va uning fikrini qo'llab-quvvatlash muhimdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalari o'smirlarning fikrlash rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet orqali turli manbalardan foydalanish imkoniyati o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi. Biroq bu jarayon nazoratsiz bo'lsa, yuzaki fikrlash, tayyor ma'lumotlarga haddan tashqari tayanish kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli o'smirlarni axborotni tanqidiy tahlil qilishga o'rgatish, ishonchli manbalarni ajrata bilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Motivatsiya ham o'smirlarning fikrlash faoliyatini rivojlantirishda muhim omillardan biridir. Ichki motivatsiya mavjud bo'lganda o'quvchi bilim olishga qiziqadi, savollar beradi va yangi ma'lumotlarni chuqur o'rganishga intiladi. Shu bois ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olish, ularni rag'batlantirish va muvaffaqiyatga erishish hissini shakllantirish muhimdir. Rag'batlantirishning turli shakllari, jumladan, ijobiy baholash, e'tirof etish va qo'llab-quvvatlash o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni yanada izlanishga undaydi.

Umuman olganda, o'smirlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u ta'lim tizimi, pedagogik yondashuvlar, oilaviy muhit va zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu omillarning uyg'unligi o'quvchilarning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlarning mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayon ta'lim muhiti, pedagogik yondashuvlar, oilaviy ta'sir va zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois o'smirlarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan tizimli va kompleks yondashuvni qo'llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va mahorat. – Toshkent, 2018.
- Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2017.
- Askarov, O. O., Abdurakhimov, B. A., & Janani, V. (2023). RESULTS AND SURVEYS ABOUT AWARENESS OF THE MITRAL VALVE PROLAPSE.
- Абдурахимов, Б. А., Тохтаев, Г. Ш. У., Сафаров, Х. Х., & Улмасов, Ж. М. (2023). ПРИНЦИПЫ ПРОВЕДЕНИЯ ФОТОХИМИОТЕРАПИИ В ДЕРМАТОЛОГИИ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ). Academic research in educational sciences, 4(2), 108-127.
- Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.
- Sidikova, N. N., Vaxidova, A. A., Murtazina, E. I., & Rakhimullina, F. N. (2026). Peculiarities of Personality Value Orientations in a Situation of Uncertainty. ARPHA Proceedings, 11, 657-667.
- Sidikova, N. N. (2026). LINGUOCULTURAL REPRESENTATION OF PATRIOTISM IN POETIC DISCOURSE. Modern World Education: New Age Problems–New solutions, 3(2), 64-67.
- Sidikova, N. N. (2026). THE CONCEPT OF INDIVIDUALISM IN ROMANTICISM. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 7(01), 351-358.
- Siddikova, N. N., Gafforova, S., & Gafforova, I. (2022). APPROACHES TO DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE TEACHING SYSTEM IN NONLINGUISTIC HIGH SCHOOLS OF UZBEKISTAN. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 24), 381-388.
- Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 186-192.
- Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. Мировая наука, (1), 6-8.
- Sh, B. S. (2014). Feminism and Korean Literature. ЦЕНТР КОРЕЕВЕДЕНИЯ, 29.
- Тулкиновна, Г. А., & Эшбоева, Т. С. (2020). Cognitive analysis of the concept «woman» in the French language. Молодой ученый Международный научный журнал, (30), 320.
- Najmiddinova, M. N. Mehmondo 'stlik" tushunchasiga oid maqollarning pragmatik tahlili. Universal journal of social sciences philosophy and culture".- <https://scienceresearch.uz/index.php/UJSSPC/article/view/286> ISSN, 2992-8834.
- ШУКУРОВИЧ, К. 1 ШЕРМАТОВ/SHERMATOV. Законодательство, 100, 7.
- Тагаева, Т. (2025). The system of personages in WS Maugham's works. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 116-118.
- Saidzimkhon, S. (2022). Lexicographical formation and the usage of military terminology in English. In International Conferences (Vol. 1, No. 11, pp. 57-62).
- Begmatov, K. M. (2023). Development of Pedagogical Skills of A Foreign Language Teacher Through Educational Technologies. JournalNX, 9(10), 218-220.
- Begmatov, Q. M. (2020). METHODS OF TEACHING GERMAN AS A SECOND LANGUAGE AFTER FIRST FOREIGN LANGUAGE. Theoretical & Applied Science, (4), 648-651.
- Begmatov, Q. (2019). On the issue of optimizing the teaching of German as a second foreign language in a non-linguistic university. In Science and practice: a new level of integration in the modern world (pp. 29-31).
- Abdijalilovna, E. S. (2022). Educational culture as a social phenomenon.
- Elmuradova, S. A. (2022). CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR. Ученый XXI века, (2 (83)), 58-61.

- Elmurodova, S. A., Eshbo'riyev, R., & Haydarov, U. E. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH VA BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI. Issue 4 of 2023 (140/1), 4(135), 5-12.
- Urazaliyeva, I. R., Ramanova, D. Y., & Jo'raboyeva, D. N. (2026). EVALUATION OF THE COMBINED PREVENTIVE EFFICACY OF HORMONAL THERAPY AND LIFESTYLE INTERVENTIONS IN WOMEN WITH POLYCYSTIC OVARY SYNDROME. Eureka Journal of Health Sciences & Medical Innovation, 2(1), 672-682.
- Ramanova, D., Urazaliyeva, I., Ishmukhamedova, S., Turayev, B., & Shoyusupova, H. (2020). The importance of family and family values in the formation of a healthy lifestyle. Systematic Reviews in Pharmacy, 11(12).
- Urazaliyeva, I. R., Arslanbekova, N., & Ramanova, D. Y. (2020). ANALYSIS OF THE QUALITY AND EFFICIENCY OF WORK OF VISITING NURSES BASED ON THE MATERIALS OF EXPERT EVALUATION. Новый день в медицине, (4), 330-333.
- Urazaliyeva, I., Mirpayziyeva, M., Usmanbekova, G., Ramanova, D., & Khalilov, S. (2020). Basic rights of a doctor and patient in the Republic of Uzbekistan. Systematic Reviews in Pharmacy, 11(11), 716-720.
- Мирсагатова, Д. Ш., & Раманова, Д. Ю. (2018). РОЛЬ МЕДИЦИНСКОЙ СЕСТРЫ В ОКАЗАНИИ ПАЛЛИАТИВНОЙ ПОМОЩИ БОЛЬНЫМ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. In Современная медицина: новые подходы и актуальные исследования (pp. 60-64).
- Jo'rayev R.X. Pedagogika asoslari. – Toshkent, 2019.
- Tolipov O'.Q. Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2015.
- Xoliqov A.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.

Spatiotemporal Variability Of Small Mammal Population Abundance In The Ecosystems Of The Lower Amu Darya Delta

Tlegenov Markhabay Tolegenovich

Karaklpak Institute of Agriculture and Agrotechnologies,
Uzbekistan, Nukus e-mail: tlegenovmarxabay@gmail.com

Abstract

This paper analyzes the biotopic distribution, as well as certain population and demographic parameters of the community of murid rodents under different levels of population density of background (dominant) species.

Keywords: Amu Darya Delta, small mammals, population dynamics, population structure, rodent communities.

At present, the study of processes based on mechanisms that ensure adaptive regulation under sharply deteriorating environmental conditions continues to attract the attention of researchers, remaining a central issue in modern population ecology [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7]. Small mammals, being an important component of natural ecosystems, are traditionally widely used as model organisms in zoological and ecological studies, including those addressing problems of anthropogenic landscape transformation [1, 2, 3]. This is a numerous group of animals which, due to their position in ecosystem trophic chains, directly experiences the pressure of various negative environmental factors over large areas and therefore can be used as indicators of environmental transformation [3, 5, 6, 7].

Under current conditions of intensive anthropogenic and technogenic impact on the natural complexes of the Southern Aral Sea region, the existence of many animal species is under the threat of extinction. The intensity of environmental factors, along with other indicators, has a significant influence on the population structure and population dynamics of small mammal fauna inhabiting the lower reaches of the Amu Darya delta.

Materials and Methods

The material of the study consisted of the results of field investigations conducted in 2009–2019 in natural and anthropogenic habitats of small mammals in the lower reaches of the Amu Darya Delta [8]. Well-known indices were used as measures of community biological diversity, including the biotopic affinity index, the Shannon diversity index (H), and the Simpson diversity (C) and dominance (D) indices [1, 3, 4]. The selection of biotopes in the natural group was linked to the main vegetation types of the zonal elements of the landscape [5, 6, 7].

Natural habitats included tugai forests and reed beds in the lower reaches of the Amu Darya Delta. In the anthropogenic group of biotopes, fallow lands, shelterbelts along highways, and agricultural fields of farming enterprises of the Republic of Karakalpakstan were surveyed.

Discussion of Results

In recent years, due to unfavorable directional climate changes and the associated alterations in vegetation, one of the most pressing issues has been the assessment of the stability of populations of sympatric animal species, as well as the preservation of the composition and structure of their communities [3, 5, 6, 7]. A detailed analysis of the biotopic affiliation of small mammal populations in the lower reaches of the Amu Darya makes it possible to evaluate their resistance to anthropogenic transformation of ecosystems and, to some extent, to predict trends in changes in their positions within communities during further economic development and land irrigation.

As is well known, any system of environmental control consists of ecological monitoring and analysis of the data obtained, on the basis of which decisions are made regarding the prospects

for ecosystem functioning and practical use [1, 2, 3, 4, 5, 6, 7]. In this case, the humid ecosystems of the Aral Sea region—tugai biocenoses—under the influence of the general process of landscape transformation have undergone profound successional changes.

Analyzing the obtained assessments of the spatial structure of small mammal populations and their biotopic affiliation in the lower reaches of the Amu Darya, it should be noted that, according to all indicators, rodent populations differ significantly between areas with intensified anthropogenic impact and natural territories. Based on the distribution of mammal habitats, the lower Amu Darya region is divided into three biotopes: reed beds and water bodies, tugai forests, and agricultural lands.

As a result of the intensification of desertification processes, reduction of tugai and reed vegetation, intensification of land use, and other negative factors, the distribution area and abundance of mesophilic species have sharply declined. The analysis showed that 13 species inhabit the lower Amu Darya region, among which *Mus musculus* (13.6%), *Nesokia indica* (23.2%), *Allactaga elater* (14.5%), and *Meriones tamariscinus* (15.3%) are abundant, while *Ondatra zibethica* occurs in water bodies.

Irrigated agriculture is among the most powerful transforming factors. On agricultural fields of various farming enterprises, a specific rodent assemblage is formed that differs substantially from the indigenous communities that existed prior to land development [1, 2, 3, 4, 5]. As noted by specialists, not many animals are able to adapt to living on agricultural lands; however, there are rodent species for which habitation in fields has become a common phenomenon [3, 4, 5, 6, 7].

The applied informational indices of species diversity [1, 3, 4, 5] help to identify differences between habitats of various communities and to determine the biotope most favorable for murid rodents [5, 6, 7]. The species composition of small mammals in the studied plant communities is very similar in both quantitative and qualitative terms, with differences occurring mainly at the level of rare species [3, 4]. Consequently, the diversity indices of murid rodent communities in different habitats differ only slightly and, on average, show relatively low values (Table 1). The highest species diversity was recorded in agricultural habitats, where the diversity index (H) was higher than in other natural biotopes. In other natural habitats—tugai forests and reed beds—these indices were slightly lower.

Indices of Species Diversity of Small Mammals in Different Biotopes of the Lower Amu Darya Region

Biotope	Species Richness Index, C	Species Diversity Index, H	Simpson Dominance Index, D
Reed beds	1,24	1,26	0,36
Water bodies, drainage network	0,21	0,34	0,15
Tugai vegetation	0,75	1.12	0.21
Agricultural lands	1,18	1,56	0,23

Lower values of the indices obtained for reed beds and tugai ecosystems are likely related to the fact that their magnitudes can vary considerably during mass outbreaks of one or two background species [2, 3, 4, 6].

The conducted studies made it possible to establish that the lower level of overall abundance and spatial structure of mesophilic rodent species (*Ondatra zibethica*, *Microtus ilaeus*, etc.) is due to a reduction in the proportion of microhabitats suitable for animal habitation. It should be noted that these habitats become insularized, and the share of zonal territory with favorable

living conditions decreases compared to the original natural zone, which is reflected in the population occupancy indicators of a given area. At the same time, the species persist in those habitat patches where the capacity of microhabitats allows the maintenance of normal vital activity [3, 4, 5, 6]. Among the elements of anthropogenic landscapes, the open collector–drainage network has the greatest ecological importance for rodents. These structures serve as the main habitats and refugia for rodent species such as *Mus musculus*, *Nesokia indica*, and *Meriones tamariscinus*. After the development and irrigation of agricultural lands in various farming enterprises of Karakalpakstan, populations of *Mus musculus* and *Nesokia indica* find favorable feeding and protective conditions on the slopes of the open collector–drainage network. Various embankments and constructed collector dams with loose soil are preferred burrowing sites for *Nesokia indica*. In settlements and farming enterprises, the dominant rodent species *Mus musculus* and *Nesokia indica* are established.

Thus, entirely new ecological conditions are formed in anthropogenic landscapes, to which ecologically plastic species are able to adapt. Landscape transformation has both direct and indirect effects on rodent fauna and populations, creating optimal conditions for the existence of some species and, conversely, unfavorable conditions for others. For the overwhelming majority of rodent species in anthropogenic landscapes, the feeding conditions of biotopes are limited [2, 4, 5, 6, 7].

As a result of anthropogenic landscape transformation, due to the preservation of biotope mosaicism, the abundance of certain rodent species (*Ondatra zibethica*, *Microtus ilaeus*, *Allactaga elater*) increases. At the same time, in anthropogenic landscapes, the species diversity of rodent food plants becomes simplified, trophic relationships are disrupted, and rodent population density decreases. Consequently, different rodent species exhibit unequal degrees of association with anthropogenic complexes. Thus, *Mus musculus* is less adapted than other species to inhabiting natural habitats and reaches high abundance in anthropogenic biotopes. In natural biotopes, the species appears only in years of high population density. *Meriones tamariscinus* inhabits natural biotopes mainly in tugai floodplain forests and reed beds, where it may occupy dominant positions; among anthropogenic biotopes, it uses intrazonal strips for permanent habitation.

Therefore, the stability of small mammal populations in areas with high anthropogenic pressure is apparently determined by individual adaptive responses leading to increased intensity of physiological processes in the organism. From the perspective of the evolutionary–ecological approach, this mechanism represents the first stage of adaptive changes (the most primitive and energy-intensive), yet it is precisely through this mechanism that the existence and integrity of population systems of small mammals are maintained in areas subjected to intensified anthropogenic impact.

The amplitude of population abundance dynamics in transformed territories is increased compared to natural ones (except for *Microtus ilaeus*), which emphasizes the imbalance of living conditions for most mesophilic species. This effect is particularly pronounced during population depressions and leads to an increase in fluctuation amplitude. Population structure is characterized by a significant contribution of synanthropic species (*Mus musculus*, *Nesokia indica*). The abundance of animals in areas of anthropogenic successions in the lower Amu Darya is comparable to, and in some habitats significantly exceeds, that in undisturbed natural landscapes.

Our data confirm the well-known concept that in the ecological optimum of a species' range, population density is not only higher but also more stable, whereas at the periphery it fluctuates over a wider range [1, 3, 4]. Under pessimal conditions, populations are highly sparse, lack effective population control, and their abundance is mainly limited by external factors.

An analysis of the demographic, sex, and age structure of populations of background species shows that the main population parameters are stable and correspond to species-specific norms. Similarities in reproductive processes are noted for *Mus musculus*. A high reproductive potential allows populations to increase their density within one or two reproductive seasons, while the high carrying capacity of the habitat helps maintain it at a high level.

Bugungi kunda turizm dunyoda tovar va xizmatlar eksportida to'rtinchi o'rinda, daromad bo'yicha uchinchi o'rinda turipdi. Turizm dunyo IIPning 10% ni tashkil etadi. Shuning uchun dunyodagi barcha davlatlar turizmdan daromad topishga harakat qilmoqda, natijada raqobat borgan sari kuchayib bormoqda.

Bunda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda Xitoy tajribasidan o'rganish, amalda muvaffaqiyatli foydalanish va samaradorlikni oshirish yo'llari juda muhim va samarali hisoblanadi. Birinchi o'rinda, Xitoy tajribasidan o'rganish orqali, biz O'zbekiston sharoitiga mos tusha oladigan va turizmni rivojlanishga yetaklaydigan yangi g'oyalarni ko'rishimiz mumkin. Ikkinchidan, Xitoy tajribasidan amalda muvaffaqiyatli foydalanish, xizmat sifatini, ya'ni servisning yanada mukammalshishiga va yanada ko'proq turistlarni jalb qilishga yordam beradi. Uchinchidan, Xitoy tajribasidan samaradorlikni oshirish orqali, turizm uchun yangi yo'l va yangi investitsiyalarni ko'paytiradi. Shunday qilib, Xitoy tajribasidan o'rganib, va undan amalda foydalanish, O'zbekiston turizm rivojini va samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Asosiy qism Jahon iqtisodiyoti shuni ko'rsatadiki, strategik rejalashtirish turizm sohasini rivojlantirishda muhim boshqaruv instrumenti bo'ladi. U doimiy davlat siyosatini qo'llab-quvvatlaydi, ustuvor yo'nalishlarni aniqlaydi va uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Ayniqsa, Xitoy tajribasida strategik rejalashtirish turizmni

kompleks rivojlantirishda asosiy omil sifatida qaraladi. Infratuzilmani yangilash turizm rivojining muhim qismi. Bu jarayonda temir yo'l, avtomobil yo'llari, aeroportlar tarmog'i yangilanadi, kengayadi va zamonga mos ravishda ta'mirlanadi. Mehmonxonalar, dam olish maskanlari, ko'ngilochar obyektlar ham rivojlanadi. Yaxshi infratuzilma turistlar oqimini sezilarli darajada oshiradi, xizmat sifatini yaxshilaydi. Zamonaviy sharoitda "Smart Tourism" konsepsiyasi turizm sohasini yangi bosqichga olib chiqadi. Xitoy amaliyotida Ctrip va Fliggy raqamli platformalari, Alipay va WeChat Pay elektron to'lov tizimlari turizm xizmatlarini birlashtiradi va uni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Bu turistlar uchun qulaylik yaratadi.



1-rasm. WeChat Pay va AliPay foydalanuvchilar soni

1-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, 2025-yil 1-choragi holatiga ko'ra butun dunyo bo'yicha WeChat Pay (WEIXIN) foydalanuvchilar soni 1.47 mlrd., Alipay (ZHIFUBAO) foydalanuvchilar soni 1.04 mlrd. ni tashkil etadi. Shundan ko'rinib turibdiki raqamlashtirilgan texnologiyalar rivoji nafaqat turizm balki butun iqtisodiyot o'sishi uchun katta bir qadam hisoblanadi.

Madaniy merosni turistik mahsulotga aylantirish ham turizmni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. YUNESCO ro'yxatidagi obyektlarni faol targ'ib qilish kerak, keng jamoatchilikka tanishtirish zarur va shu bilan birga turistik jozibadorligini oshirish ham muhim. Madaniy-tarixiy festivallarni rivojlantirish foydali. Madaniy-tarixiy festivallarni kengaytirish turistlar oqimini ko'paytiradi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 7 ta YUNESCO Butunjahon merosi obyekti mavjud.

1-jadval. O'zbekistondagi YUNESCO Butunjahon merosi obyektlari

No	Obyekt nomi	Joylashuvi	Turi	Kiritilgan yil	Qisqacha tavsif
1	Ichan Kala	Xiva	Madaniy	1990	Devor bilan o'ralgan qadimiy shahar
2	Buxoro tarixiy markazi	Buxoro	Madaniy	1993	2000 yillik tarixga ega, ko'plab obidalar
3	Shahrisabz tarixiy markazi	Shahrisabz	Madaniy	2000	Amir Temur tug'ilgan shahar

4	Samarqand – madaniyatlar chorrahasi	Samarqand	Madaniy	2001	Ipak yo'li markazi, mashhur majmualar
5	G'arbiy Tyanshan tog'lari	Toshkent viloyati	Tabiiy	2016	Noyob flora va fauna
6	Zarafshon–Qoraqum yo'lagi	Samarqand, Buxoro	Madaniy	2023	Ipak yo'lining muhim qismi
7	Turon sovuq qish cho'llari	Qoraqalpog'iston	Tabiiy	2023	Noyob cho'l ekotizimi

Manba: UNESCO – World Heritage List

Milliy va xalqaro marketing kampaniyalari turizm brendini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Xitoyda “Beautiful China” konsepsiyasi mamlakatning turistik salohiyatini global miqyosda targ'ib qiladi. O'zbekiston ham shunga o'xshash yondashuvni qo'llansa, turizm sohasining xalqaro raqobatbardoshligi oshadi. Mazkur yondashuv amaliyotda samaradorlikni oshiradi.

Albatta O'zbekistonda yaqin yillardan buyon turizmga alohida urg'u berib kelinmoqda va biz buni “O'zbekiston Respublikasini 2019-2025 yillarda rivojlantirish strategiyasi” hamda “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi”da ko'rishimiz mumkin. “O'zbekistonda 2019-2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi”, turizmni boshqarish bo'yicha strategik yo'nalishlarni belgilaydi. 2018-yilgi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun viza tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” qaror, viza rejimini sezilarli darajada yengillashtiradi. Infratuzilma va investitsiyalar: Davlat “O'zbekiston Havoy Yo'llari”ga yangi samolyotlar bermoqda, xalqaro aeroportlar esa zamonaviylashtirilmoqda. Toshkentdan Buxoro va Xivaga tezyurar poyezdlar ishga tushdi. Mehmonxona qurish uchun imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlari joriy qilindi. Raqamlashtirishda “E-Visa” tizimi, “Uzbekistan Travel” rasmiy portal ishga tushdi, shuningdek, “Uzcard” va “HUMO” tizimlari turizmga keng qo'shilmoqda. Kadrlar tayyorlash uchun, “O'zbekiston-Turizm” universiteti tashkil etildi, shuningdek, bir qator oliy o'quv yurtlarida yo'nalishlar ochildi. Bular hammasi O'zbekistonning turizmni rivojlantirishi, yuksalishi uchun olg'a bosilayotgan qadamlardir.

O'zbekiston uchun Xitoy tajribasidan samarali foydalangan holda, O'zbekiston “Smart Tourism” platformasi yaratilishi, ya'ni “O'zbekiston Travel” portalini to'liq xizmat ko'rsatadigan platformaga aylantiradi. Shundan so'ng Uzbekistan Smart Tourism platformasi transport, mehmonxona, yo'nalish, mahalliy mehmonxonalar va kafelar uchun onlayn bron qilishniva bularning barchasini real vaqtda ma'lumotlarni birlashtiradi. Bu o'z vaqtida turistlarga ancha qulayliklar yaratadi. Misol uchun diqqatga sazovor joylardagi navbatni, endi onlayn holda xarid qilish imkonini beradi. Xitoyning WeChat yoki Alipay modelidan ilhomlanib, turizm xizmatlari uchun yagona to'lov tizimini, masalan “Uzbekistan Tourism Pay”, yaratish mumkin. Shunda chet ellik sayyohlar o'z davlat kartalari orqali ham to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Madaniy kontent va tarix haqida qiziqarli hikoyalar yaratish va uni animatsion video holatida internetga joylash orqali yanada ko'proq turistlarni tarixiy va madaniy merosga boy o'kamizga tashriflar sonini oshirishimiz mumkin. Xitoyning “Go'zal Xitoy” kampaniyasi o'rniga “O'zbekiston: Ipak yo'li afsonasi” yoki “Abadiy tarix, samimiy mehmondo'stlik” kabi kuchli milliy brendni yaratish orqali bunga erishish mumkin. “O'zbekiston: Ipak yo'li afsonasi” brendi yaratiladigan bo'lsa, har bir Ipak yo'li shahrining o'ziga xos hikoyasini yaratish orqali diqqatga sazovor joylarni yana tiriklantirishimiz mumkin. “O'zbekiston: Ipak yo'li afsonasi” brendi hikoyalarni tarqatish uchun vlog, TikTok, Xitoyning Weibo kabi raqamli platformalardan,

hamda o'zimizda ko'p foydalaniladigan Instagram, youtube orqali O'zbekiston turizmini butun dunyoga targ'ib qilishimiz mumkin.

Xulosa. Xitoy tajribasi O'zbekiston uchun nusxa emas, bu tizimli yondashuv, texnologik yangiliklar, davlatning kuchli qo'llab-quvvatlashi va global marketingga amaliy misol. O'zbekiston so'nggi yillarda viza rejimini soddalashtirdi, investitsiya jalb qildi, raqamlashtirish bosqichlarini boshlab, to'g'ri yo'nalishda qadam qo'ydi. Samaradorlikni oshirish uchun, qog'ozdagi islohotlarni chuqurroq amaliyotga tatbiq etish, turizmni boshqarish uchun markaziy raqamli platforma yaratish, milliy brendni dunyo bozorida chiroyli ko'rsatish kerak. Xitoydan o'rganilgan eng muhim dars shundaki, turizm rivoji, uzoq muddatli reja va barqarorlikni talab qiladi. Turizm rivoji O'zbekistonning iqtisodiy o'sishida, turizm yo'nalishidagi barcha loyiha va dasturlarda, har bir bosqichda, asosiy poydevor bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

UNWTO – Tourism Highlights, 2023.

UNESCO – World Heritage List.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2019–2025 yillarda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi"ga oid qarori.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Turizm sohasiga oid rasmiy statistik ma'lumotlar. Toshkent, 2023.

Cooper, C., Fletcher, J., Gilbert, D., Shepherd, R. Tourism: Principles and Practice. 5th Edition. London: Pearson Education, 2008.

Zhang, Y., & Zhang, X. "Smart Tourism Development in China: Technologies and Applications". Journal of Tourism Research, 2021.

Features Of Application Of Error Prediction Models Using Machine Learning

No'monova O'g'iloy Salohiddin qizi

3rd year student of the Department of Information Systems and Technologies, FarSU

ogiloynomonova875@gmail.com

Abdukadirov Bakhtiyor Abduvakhitovich

Associate Professor of the Department of Information Technologies, Fergana State University, PhD.

bakhtiyor.uz@gmail.com

Annotation

This article, Currently, traditional statistical methods are used in the development of artificial intelligence algorithms and programs. Regression and output interpolation methods have been used based on the values of the given sets. Below are some of the statistical methods that are currently widely used in the development of AI algorithms and programs. Machine Learning (ML) is a field that allows computer systems to learn from data and automate decision-making based on it. This technology plays an important role in the development of artificial intelligence and is used in various fields, including medicine, finance, marketing, and transportation. The main methods of machine learning are: supervised learning, unsupervised learning, reinforcement learning, robustness testing, generative models, deep learning, etc. Each method is used in accordance with different data and tasks. This article analyzes the main methods of machine learning and shows their practical application.

Keywords: Object set, test set, parameters, prediction, diagnosis, classification. Machine Learning, Supervised Learning, Unsupervised Learning, Reinforcement Learning


Annotatsiya

Mazkur maqola, Hozirgi kunda sun'iy intellekt algoritmlari va dasturlarini ishlab chiqishda an'anaviy statistik usullardan foydalanilmoqda. Berilgan to'plamlar qiymatlari asosida regressiya va chiqizli interpolatsiya usullaridan foydalanib kelingan. Quyida mavjud statistik usullar keltirilgan bo'lib, bular hozirgi kunda SI algoritmlari va dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalanib kelinmoqdaligi haqida Mashinali o'qitish (Machine Learning, ML) — bu kompyuter tizimlariga ma'lumotlardan o'rganish va ularga asoslanib qarorlar qabul qilishni avtomatlashtirishga imkon beruvchi soha. Ushbu texnologiya, sun'iy intellektning rivojlanishida muhim o'rin tutadi va turli sohalarda qo'llaniladi, jumladan, tibbiyot, moliya, marketing va transport. Mashinani o'rganishning asosiy usullari: nazoratli o'rganish, nazoratsiz o'rganish, qarorlarni mustahkamlash o'rganish, chidamlilikni tekshirish, generativ modellar, chuqur o'rganish va boshqalar. Har bir usul turli xil ma'lumotlar va vazifalarga mos ravishda ishlatiladi. Bu maqola mashinani o'rganishning asosiy usullarini tahlil qiladi va ularning amaliy qo'llanilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Obyektlar to'plami, testlash to'plami, parametrlar, bashoratlash, tashxislash, sinflashtirish. Mashinaliy o'qitish, Nazoratli o'rganish (Supervised Learning), Nazoratsiz o'rganish (Unsupervised Learning), Qarorlarni mustahkamlash o'rganish (Reinforcement Learning)

Kirish: Mashinali o'qitish (Machine Learning) – bu kompyuterni dasturlashning yangi yo'nalishi bo'lib, dasturning ma'lumotlarni o'qib olish va shu ma'lumotlar asosida o'rganish xususiyatiga ega bo'lishidir. [Mashinali o'qitish] kompyuterning ma'lumotlarni o'qib olish asosida xususiyatlarni o'rganish qobiliyatidir - Arthur

Samuel, 1959 A dastur bu E tajriba asosida T masalani yechishda P samaradorlik o'lchovi bilan yaratiladi, va T masala samaradorligi P orqali tekshiriladi va aniqligi E tajriba asosida amalga oshiriladi – Tom Mitchell, 1997



O'qitish masalasi

X- obyektlar to'plami

Y- javoblar to'plami

$y: X \rightarrow Y$ no'malum bog'liqlik esa target function (maqsad funksiya) deyiladi.

Berilgan: $\{x_1, \dots, x_\ell\}$ X — o'qitiluvchi to'plam (training sample) $y_i = y(x_i)$, $i = 1, \dots, \ell$ — ma'lum javoblar Demak o'qitish masalasi deganda $a: X \rightarrow Y$ moslikni xal qiluvchi algoritimga yo'naltiriladi.

Mashinani o'qitish jarayoni bosqichlari

- Mashinani o'qitish jarayoni chiziqli yoki nochiziqli bo'lishiga qaramasdan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:
- Muammoni aniqlash.
- Ma'lumotlarni tayyorlash.
- Algoritmni ishlab chiqish va baholash (testlash).
- Natijaviy ma'lumotlar aniqligini oshirish.
- Yakuniy natijani (ishlab chiqilgan model) taqdim qilish

Natija va muhokama

Mashinani o'qitish jarayoni bosqichlari

- Mashinani o'qitish jarayoni chiziqli yoki nochiziqli bo'lishiga qaramasdan quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:
- Muammoni aniqlash.
- Ma'lumotlarni tayyorlash.
- Algoritmni ishlab chiqish va baholash (testlash).
- Natijaviy ma'lumotlar aniqligini oshirish.
- Yakuniy natijani (ishlab chiqilgan model) taqdim qilish.

O'qituvchili o'qitish algoritmlari

Linear Regression

Nearest Neighbor

Gaussian Naive Bayes

Decision Trees

Support Vector Machine (SVM)

Random Forest

Ma'lumotlar to'plami (Data set)

Data set - bu o'qitish uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlar to'plamidir. Boshqacha aytganda, ma'lumotlar to'plami ma'lumotlar bazasi jadvalining yoki bitta statistik

ma'lumotlar matritsasining qiymatlarini hisoblanib, bunda jadvalning har bir ustuni ma'lum o'zgaruvchini yoki parametr (x_1, x_2, \dots, x_n) qiymatini ifodalasa, har bir satr esa berilgan parametrlar asosidagi obyekt qiymatiga (X_1, X_2, \dots, X_N) to'g'ri keladi.

Machine Learning loyihalarida biz o'quv ma'lumotlari to'plamidan (training data set) foydalanamiz. Bu turli xil harakatlarni bajarish uchun modelni o'qitish uchun ishlatiladigan haqiqiy ma'lumotlar to'plami hisoblanadi. Mashinani o'qitish jarayonida va modelning to'liq ishlashini ta'minlash maqsadida quyidagi ma'lumotlar to'plami turlaridan foydalaniladi:

- o'qituvchi to'plam, o'quv tanlanma (training set);
- validatsiya to'plami (validation set);
- testlash to'plami (testing set).

Ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish Ma'lumotlar turini belgilash (Format):

O'qituvchi to'plamdagi ma'lumotlar turi va toifasini moslashtirish (Misol uchun, o'qitiluvchi to'plam sifatida 100 t rasm olingan bo'lsin, rasmlar har xil o'lchamda yoki har xil fayl formatida bo'lishi mumkin).

Ma'lumotlarni tozalash (Data Cleaning): Ushbu bosqichda ma'lumotlar orasidan ortiqcha yoki ahamiyati past bo'lgan (masalan, sifati juda past bo'lgan tasvirlar, o'lchami juda kichik bo'lgan rasmlar), model turg'unligiga ta'sir qiluvchi ma'lumotlar olib tashlanadi. Xususiyatlarni ajratib olish (Feature Extraction): Ushbu bosqichda o'qituvchi to'plamdagi ma'lumotlar xususiyatlari o'rganib chiqiladi va bashoratlash, tashxislash, sinflashtirish, qaror qabul qilish uchun kerakli xususiyatlar ajratib olinadi. (Misol uchun rasmda "olma" tasvirlanganligini belgilab beruvchi xususiyatlar). Bugungi kunda mashinali o'qitish (Machine Learning, ML) texnologiyasi turli sohalarda inqilobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Sun'iy intellektning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan ML algoritmlar yordamida dasturlar mustaqil ravishda ma'lumotlardan o'rganib, o'zini takomillashtirish qobiliyatiga ega bo'lmoqda. Ushbu maqolada mashinali o'qitishning asosiy tushunchalari, turlari va qo'llanilish sohalari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Mashinali o'qitish (MO) algoritmlarining samaradorligi ularning asosiy komponenti bo'lmish ma'lumotlarga bog'liq. Yuqori sifatli ma'lumotlar modelni aniqroq va ishonchliroq qilishga yordam beradi, past sifatli ma'lumotlar esa noto'g'ri bashorat va xatolarga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Mashinali o'qitish texnologiyalari turli xil algoritmlar va usullarni o'z ichiga oladi. Har bir usul ma'lum bir vazifa yoki muammoga eng mos keladi, shuning uchun to'g'ri usulni tanlash va kerakli ma'lumotlar bilan ishlash juda muhim. Mashinali o'qitish ko'plab sohalarda inqilobiy o'zgarishlar yaratmoqda va har yil o'tgan sari uning qo'llanilishi kengaymoqda. Mashinali o'qitish zamonaviy texnologiyalarning asosi bo'lib, har xil sohalarda, jumladan, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, tibbiyot, moliya va boshqalarda keng qo'llanilmoqda. Har bir usulning o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud, shuning uchun to'g'ri usulni tanlash ma'lum bir muammoni yechishda juda muhimdir. Hozirgi vaqtda sun'iy intellekt butun dunyoni egallamoqda. Hozirgi vaqtda yosh bolalardan tortib talabalar hattoki ustozlar ham kitobdan emas sun'iy entilektdan foydalanmoqda. Xulosa qilib aytgan har doim ham mashinalar va internet hayotim iz manbayiga aylanmoqda

Adabiyotlar ro'yxati

Олимов, К. Т., Узакова, Л. П., & Тураева, Н. А. (2015). Новые возможности в передаче дизайнов вышивки современных вышивальных швейных машин Janome Memory Craft. Молодой ученый, (7), 187-189.

- Усманова, С. Н., & Рустамова, Г. (2023). Основные особенности внедрения информационных технологий в организация самостоятельной работы студентов в процессе обучения русского языка. *Science and Education*, 4(6), 806-809.
- Mamirova, D. (2026). SOCIOLOGICAL RESEARCH OF ADVERTISING TEXTS. *Asian journal of scientific research and innovations*, 1(1), 155-157.
- Shirinboyeva, M. D. (2024). NUTRIENT AKTIVITAT REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 2(2), 39-42.
- Mamirova, D. (2024). REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 2(1), 45-47.
- Shirinboyeva, M. D., Mansurova, R. U., & Safarovna, S. N. (2022). SOCIALLY DELIMITED WORDS IN ADVERTISING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
- Халилова, Л. (2024). Проблемы обучения диалога на занятиях иностранного языка. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 737-739.
- Халилова, Л. (2022). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ. *Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры*, 2(2), 415-418.
- Fevziyeva, K. L. (2021). CRITICAL THINKING AS ONE OF THE SKILLS DEVELOPED THROUGH THE DIALOGUE OR CONVERSATION. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 37-46.
- Bakhtiyorova, S. I., Fevziyeva, K. L., & Khamzaeva, R. M. (2021). How to support healthy class competition in an English lesson. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 399-402.
- Khalilova, L. F. (2020). Regional Tourism Development Efficiency: Efisiensi Pengembangan Pariwisata Daerah. *Indonesian Journal of Law and Economics Review*, 6, 10-21070.
- Urazaliyeva, I. R., Ramanova, D. Y., & Jo'raboyeva, D. N. (2026). EVALUATION OF THE COMBINED PREVENTIVE EFFICACY OF HORMONAL THERAPY AND LIFESTYLE INTERVENTIONS IN WOMEN WITH POLYCYSTIC OVARY SYNDROME. *Eureka Journal of Health Sciences & Medical Innovation*, 2(1), 672-682.
- Ramanova, D., Urazaliyeva, I., Ishmukhamedova, S., Turayev, B., & Shoyusupova, H. (2020). The importance of family and family values in the formation of a healthy lifestyle. *Systematic Reviews in Pharmacy*, 11(12).
- Urazaliyeva, I. R., Arslanbekova, N., & Ramanova, D. Y. (2020). ANALYSIS OF THE QUALITY AND EFFICIENCY OF WORK OF VISITING NURSES BASED ON THE MATERIALS OF EXPERT EVALUATION. *Новый день в медицине*, (4), 330-333.
- Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.
- Saidazimkhon, S. (2022). Lexicographical formation and the usage of military terminology in English. In *International Conferences* (Vol. 1, No. 11, pp. 57-62).
- Тагаева, Т. (2025). The system of personages in WS Maugham's works. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 116-118.
- Tagayeva, T., & Amanova, S. (2024). Stylistic Peculiarities of Literary Text in Creative Works of Bernard Shaw. 2024: Humanistic Role of Language and Literature in the Contemporary Globalization.

- Doniyor og'li, T. I., & Rajabbayevna, A. N. (2026). YURAK—HAYOT DVIGATELI VA UNING METABOLIK YOQILG 'ISI: FIZIOLOGIK, BOKIMYOV VA PROFILAKTIK ASOSLARI. SHOKH LIBRARY, 1(1).
- Sultanovna, K. M., Ganidjanovna, A. I., & Rajapbayevna, A. N. (2020). The importance and place of women and men in the formation of family institution. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 163-168.
- Baxramovna, A. M., Toxirovich, S. O., & Rajabbayeva, A. N. (2025). YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYA QILISHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY VA AXLOQIY OMILLARI. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 3(1), 79-84.
- Maxamatjanova, N. M. Choriyeva ARQ ASTMANI KUCHAYTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR. In *Academic research in educational sciences.–2025.–№. Conference* (pp. 99-102).
- Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 186-192.
- Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. *Мировая наука*, (1), 6-8.
- Sh, B. S. (2014). Feminism and Korean Literature. *ЦЕНТР КОРЕЕВЕДЕНИЯ*, 29.
- Murodbek, A. (2026). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA URUSH VA TINCHLIK KONSEPTUAL TAHLILINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G 'OYALAR, 2(7), 429-433.
- Murodbek, A. (2026). O 'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "URUSH" VA "TINCHLIK" KONSEPTLARI ORQALI INSONIYLIK, EZGULIK VA ADOLAT G 'OYALARINING BADIY IFODASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(4), 348-351.
- Furkatovna, N. D. (2023). Analysis of Definitions of the Concept "Discourse" in Linguistics. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 12, 22-26.
- Sattorqul o'g'li, A. I., & Furkatovna, N. D. (2025). TEACHING SPEECH ACTS AND INTONATION AS MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION TO ACTION. *TADQIQOTLAR*, 76(7), 181-183.
- Furkatovna, N. D. (2025). COMMUNICATIVE NORMS IN ENGLISH PHONETICS: FROM STANDARD TO NON-STANDARD VARIETIES. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(9), 10-15.
- Олимов, К. Т., Гаффаров, Ф. Х., & Расулов, А. А. (2015). Регистрация качества эффективности учебников по специальным дисциплинам профессионального образования. *Молодой ученый*, (10), 1244-1246.
- Onarqulov, M., Yaqubjonov, A., & Yusupov, M. (2022). COMPUTER NETWORKS AND LEARNING FROM THEM OPPORTUNITIES TO USE. *Models and methods in modern science*, 1(13), 59-62.
- Абдулазиз угли, Ю. М., Каримбердиевич, О. М., & Махамедин угли, Ё. А. (2022). АЛГОРИТМЫ РАСПОЗНОВАНИЯ РЕЧИ И КЛАССИФИКАЦИЯ МЕТОДОВ РАСПОЗНОВАНИЯ РЕЧИ. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES*, 3(10), 15-19

Methods Of Refactoring And Optimizing Legacy Systems

Abdumannonov Akhmadillo Bekmurod oglu

3rd year student of the Department of Information Systems and Technologies, FarSU
ahmadulloabdumannonov710@gmail.com

Bakhtiyor Abdukadirov

Associate Professor of the Department of Information Technologies, FarSU, PhD
bakhtiyor.uz@gmail.com

Annotation

This article provides a scientific and practical analysis of refactoring and optimization processes in legacy systems. In modern software engineering, the complete replacement of outdated information systems is not always an effective solution; therefore, gradual modernization has become increasingly important. The study examines the theoretical foundations of refactoring and its impact on software architecture, code quality, modularity, and maintainability. It also analyzes optimization techniques, including improving algorithmic efficiency, selecting appropriate data structures, and optimizing memory and computational resource usage. The research results demonstrate that refactoring and optimization significantly improve the stability, performance, and scalability of legacy systems.

Keywords: legacy system, refactoring, optimization, software engineering, code quality, technical debt, algorithm, system architecture, modularity, performance

Annotatsiya

Ushbu maqolada legacy tizimlarni refaktoring qilish va ularni optimallashtirish jarayonlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy dasturiy injiniringda eskirgan axborot tizimlarini to'liq almashtirish har doim ham samarali yechim hisoblanmaydi, shu sababli ularni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Maqolada refaktoringning nazariy asoslari, uning dasturiy tizimlar arxitekturasi, kod sifati, modullilik va qo'llab-quvvatlash jarayonlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, optimallashtirish usullari sifatida algoritmik samaradorlikni oshirish, ma'lumotlar tuzilmasini to'g'ri tanlash, xotira va resurslardan foydalanishni optimallashtirish kabi yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, legacy tizimlarni refaktoring va optimallashtirish orqali ularning barqarorligi, ishlash tezligi hamda kengaytiriluvchanligini sezilarli darajada oshirish mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: legacy tizim, refaktoring, optimallashtirish, dasturiy injiniring, kod sifati, texnik qarz, algoritim, tizim arxitekturasi, modullilik, samaradorlik

Kirish

Hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda dasturiy tizimlarning hayotiy sikli ham tobora murakkablashib bormoqda. Yangi texnologiyalar, dasturlash tillari va arxitektura yondashuvlari tez-tez yangilanayotganiga qaramay, ko'plab tashkilotlarda yillar avval yaratilgan legacy tizimlar hali ham faol ishlatilib kelinmoqda. Bunday tizimlar o'z vaqtida samarali va dolzarb bo'lgan bo'lsa-da, bugungi kunda ular zamonaviy talablar, xavfsizlik standartlari hamda yuqori unumdorlik mezonlariga to'liq javob bera olmaydi. Legacy tizimlarning asosiy muammolaridan biri bu ularning uzoq yillar davomida o'zgarishlar natijasida murakkablashib ketishi va "texnik qarz" (technical debt)ning ortib borishidir. Dastlab oddiy va tushunarli bo'lgan kod vaqt o'tishi bilan ko'plab o'zgartirishlar, qo'shimchalar va vaqtinchalik yechimlar sababli chalkash tuzilishga ega bo'lib qoladi. Natijada tizimni qo'llab-quvvatlash, yangi funksiyalar qo'shish yoki xatoliklarni tuzatish jarayonlari ancha qiyinlashadi. Bundan tashqari, hujjatlashtirishning yetarli darajada olib borilmasligi ham dasturchilar uchun qo'shimcha muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli amaliy dasturiy injiniringda legacy

tizimlarni butunlay almashtirish har doim ham eng to'g'ri va iqtisodiy jihatdan maqbul yechim bo'lavermaydi. Chunki katta tizimlarni yangidan ishlab chiqish ko'p vaqt, katta moliyaviy resurslar va yuqori xavf darajasini talab qiladi. Aynan shuning uchun mavjud tizimlarni bosqichma-bosqich takomillashtirish yondashuvi keng qo'llaniladi. Refaktoring va optimallashtirish jarayonlari aynan shu muammolarni hal etishga qaratilgan muhim usullardan hisoblanadi. Refaktoring orqali dastur kodining ichki tuzilmasi qayta ko'rib chiqiladi, uning o'qilishi, tushunariligi va modulliligi oshiriladi. Bu esa kelajakda tizimni rivojlantirish va unga o'zgartirish kiritishni ancha yengillashtiradi. Optimallashtirish esa tizimning ishlash samaradorligini oshirishga, ya'ni tezlikni yaxshilash, xotira va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan jarayondir. Ushbu maqolada legacy tizimlarni refaktoring qilish va optimallashtirish jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu yondashuvlarning dasturiy tizimlar sifati, barqarorligi va rivojlanish imkoniyatlariga ta'siri tahlil qilinadi. Maqsad-mavjud tizimlarni samarali modernizatsiya qilish usullarini yoritish va ularning amaliy ahamiyatini asoslab berishdan iboratdir.

Jadval 1. Legacy tizim va zamonaviy tizimning asosiy farqlari

Mezon	Legacy tizim	Zamonaviy tizim
Arxitektura	Ko'pincha monolit, qattiq bog'langan, kengaytirish qiyin.	Modulli yoki microservices asosida, moslashuvchan va kengaytirishga qulay.
Texnologik asos	Eski dasturlash tillari, qo'llab-quvvatlanishi kamaygan platformalar.	Faol rivojlanayotgan frameworklar va standart platformalar.
Integratsiya	API yo'q yoki cheklangan, boshqa tizimlar bilan ulanilishi murakkab.	REST, GraphQL, event-driven yoki boshqa ochiq integratsiya usullari mavjud.
Xavfsizlik	Patch va yangilanishlar kechikadi, zaifliklar to'planib qoladi.	Avtomatlashtirilgan monitoring va tez yangilanish imkoniyati bor.
Masshtablash	Ko'proq apparat qo'shishga tayanadi, elastiklik past.	Cloud va konteynerlar yordamida gorizontaal masshtablash oson.
Texnik xizmat	Kod bazasi murakkab, dokumentatsiya yetishmaydi, mutaxassis topish qiyin.	Kod o'qilishi yaxshiroq, CI/CD va kuzatuv vositalari mavjud.

Metodlar

Ushbu mavzuni o'rganishda men asosan nazariy va amaliy yondashuvlarni birgalikda qo'llashga harakat qildim. Chunki legacy tizimlar va ularni refaktoring qilish masalasi faqat kitobiy bilim bilan emas, balki real misollar va tizim tahlili orqali yaxshiroq tushuniladi. Avvalo, men mavjud ilmiy manbalarni o'rganib chiqdim. Dasturiy injiniring bo'yicha yozilgan kitoblar va maqolalarda refaktoring va optimallashtirish tushunchalari qanday izohlanganini tahlil qildim. Bu menga nazariy asoslarni yaxshiroq tushunishga yordam berdi. Ayniqsa, legacy tizimlarning qanday paydo bo'lishi va nima uchun ular muammoli bo'lib qolishi haqida aniq tasavvur hosil bo'ldi. Keyin men solishtirish usulidan foydalandim. Ya'ni, eski tizimlar bilan zamonaviy tizimlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qildim. Arxitektura, xavfsizlik, tezlik, kengaytirish imkoniyati kabi jihatlarni solishtirib ko'rganimda, legacy tizimlarning nima uchun refaktoringga muhtoj ekanini aniqroq tushundim. Shundan so'ng men refaktoring jarayonini tasavvur qilishga harakat qildim.

Masalan, murakkab yozilgan kodni kichik bo'laklarga ajratish, takroriy qismlarni olib tashlash va funksiyalarni soddalashtirish kabi usullarni o'rgandim. Menimcha, bu jarayon dasturchi uchun juda muhim, chunki u kodni tushunarli va boshqariladigan qiladi. Optimallashtirish usullarini o'rganishda esa tizimning tezligi va samaradorligiga e'tibor qaratdim. Algoritmni yaxshilash, ma'lumotlar strukturasi to'g'ri tanlash va keraksiz operatsiyalarni kamaytirish orqali tizimni ancha tez ishlatish mumkinligini tushundim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, legacy tizimlarni refaktoring qilish va optimallashtirish zamonaviy dasturiy injiniringning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki hozirgi kunda ko'plab yirik tashkilotlarda hali ham yillar avval yaratilgan tizimlar ishlatilmoqda va ularni butunlay yangisiga almashtirish har doim ham iqtisodiy va texnik jihatdan to'g'ri yechim bo'lavermaydi. Tadqiqot davomida shuni angladimki, legacy tizimlarning asosiy muammosi ularning eskirgan arxitekturasi va vaqt o'tishi bilan to'planib boradigan texnik qarzdorlik. Bu esa tizimni rivojlantirishni qiyinlashtiradi, xatoliklar sonini oshiradi va yangi funksiyalar qo'shishni sekinlashtiradi. Shuning uchun bunday tizimlarni qo'llab-quvvatlashda refaktoring muhim rol o'ynaydi. Refaktoring jarayoni orqali kodning ichki tuzilmasi yaxshilanadi, u yanada tushunarli, tartibli va modullarga bo'lingan holga keladi. Bu esa dasturchilarga tizimni osonroq boshqarish va kelajakda o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Eng muhimi, refaktoring dastur funksionalligini o'zgartirmasdan turib, uning sifatini oshirishga yordam beradi. Optimallashtirish esa tizimning ishlash samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Algoritmni yaxshilash, ma'lumotlar strukturasi to'g'ri tanlash, keshdan foydalanish va resurslarni samarali boshqarish orqali tizimning tezligi va barqarorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu ayniqsa katta yuklama ostida ishlaydigan tizimlar uchun juda muhimdir.

Umuman olganda, refaktoring va optimallashtirish bir-biri bilan chambarchas bog'liq jarayonlar bo'lib, ular birgalikda qo'llanilganda legacy tizimlarni zamonaviy talablar darajasiga olib chiqish imkonini beradi. Mening fikrimcha, har bir dasturchi ushbu jarayonlarni chuqur tushunishi va amaliyotda qo'llay olishi kerak, chunki real loyihalarda ko'pincha yangi tizim yaratishdan ko'ra, mavjud tizimni yaxshilashga ehtiyoj ko'proq bo'ladi. Shu sababli, legacy tizimlarni to'liq inkor etish emas, balki ularni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish eng to'g'ri va samarali yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Fowler M. Refactoring: Improving the Design of Existing Code. 2-nashr. Boston: Addison-Wesley, 2018.
- Feathers M. Working Effectively with Legacy Code. New Jersey: Prentice Hall, 2004.
- Brodie M. L., Stonebraker M. Migrating Legacy Systems: Gateways, Interfaces and the Incremental Approach. San Francisco: Morgan Kaufmann, 1995.
- Усманова, С. Н., & Рустамова, Г. (2023). Основные особенности внедрения информационных технологий в организация самостоятельной работы студентов в процессе обучения русского языка. *Science and Education*, 4(6), 806-809.
- Mamirova, D. (2026). SOCIOLOGICAL RESEARCH OF ADVERTISING TEXTS. *Asian journal of scientific research and innovations*, 1(1), 155-157.
- Shirinboyeva, M. D. (2024). NUTQIY AKTLARNING REKLAMA MATNLARIDA IFODALANISHI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 2(2), 39-42.
- Mamirova, D. (2024). REKLAMA MATNLARIDA XRONOTOPNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 2(1), 45-47.

- Shirinboyevna, M. D., Mansurovna, R. U., & Safarovna, S. N. (2022). SOCIALLY DELIMITED WORDS IN ADVERTISING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(6).
- Халилова, Л. (2024). Проблемы обучения диалога на занятиях иностранного языка. *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari*, 737-739.
- Халилова, Л. (2022). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ ПРИ ОБУЧЕНИИ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ. *Универсальная индексная библиотека Евразийского журнала социальных наук, философии и культуры*, 2(2), 415-418.
- Fevzievna, K. L. (2021). CRITICAL THINKING AS ONE OF THE SKILLS DEVELOPED THROUGH THE DIALOGUE OR CONVERSATION. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 37-46.
- Bakhtiyorovna, S. I., Fevzievna, K. L., & Khamzaevna, R. M. (2021). How to support healthy class competition in an English lesson. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 399-402.
- Khalilova, L. F. (2020). Regional Tourism Development Efficiency: Efisiensi Pengembangan Pariwisata Daerah. *Indonesian Journal of Law and Economics Review*, 6, 10-21070.
- Urazaliyeva, I. R., Ramanova, D. Y., & Jo'raboyeva, D. N. (2026). EVALUATION OF THE COMBINED PREVENTIVE EFFICACY OF HORMONAL THERAPY AND LIFESTYLE INTERVENTIONS IN WOMEN WITH POLYCYSTIC OVARY SYNDROME. *Eureka Journal of Health Sciences & Medical Innovation*, 2(1), 672-682.
- Ramanova, D., Urazaliyeva, I., Ishmukhamedova, S., Turayev, B., & Shoyusupova, H. (2020). The importance of family and family values in the formation of a healthy lifestyle. *Systematic Reviews in Pharmacy*, 11(12).
- Urazaliyeva, I. R., Arslanbekova, N., & Ramanova, D. Y. (2020). ANALYSIS OF THE QUALITY AND EFFICIENCY OF WORK OF VISITING NURSES BASED ON THE MATERIALS OF EXPERT EVALUATION. *Новый день в медицине*, (4), 330-333.
- Абдурахимов, А. Б. (2024). ИЗУЧЕНИЕ УСЛОВИЙ ТРУДА И ОПРЕДЕЛЕНИЕ ВРЕДНЫХ ФАКТОРОВ ПРОИЗВОДСТВА НА МЕДЕПЛАВИЛЬНЫХ И ОБОГАТИТЕЛЬНЫХ ЗАВОДАХ.
- Saidzimkhon, S. (2022). Lexicographical formation and the usage of military terminology in English. In *International Conferences (Vol. 1, No. 11, pp. 57-62)*.
- Тараева, Т. (2025). The system of personages in WS Maugham's works. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, 1(1), 116-118.
- Tagayeva, T., & Amanova, S. (2024). Stylistic Peculiarities of Literary Text in Creative Works of Bernard Shaw. 2024: *Humanistic Role of Language and Literature in the Contemporary Globalization*.
- Doniyor og'li, T. I., & Rajabbayevna, A. N. (2026). YURAK—HAYOT DVI GATELI VA UNING METABOLIK YOQILG 'ISI: FIZIOLOGIK, BIOKIMYO V VA PROFILAKTIK ASOSLARI. *SHOKH LIBRARY*, 1(1).
- Sultanovna, K. M., Ganidjanovna, A. I., & Rajapbayevna, A. N. (2020). The importance and place of women and men in the formation of family institution. *Journal of Critical Reviews*, 7(7), 163-168.
- Baxramovna, A. M., Toxirovich, S. O., & Rajabbayeva, A. N. (2025). YOSHLARNI AXBOROT XURUJLARIDAN HIMOYA QILISHNING MA'NAVYIY-MA'RIFIY VA AXLOQIY OMILLARI. *Бюллетень студентов нового Узбекистана*, 3(1), 79-84.
- Maxamatjanova, N. M. Choriyeva ARQ ASTMANI KUCHAYTIRUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR. In *Academic research in educational sciences.–2025.–№. Conference (pp. 99-102)*.

- Bo'Riyeva, G. (2023). Saida Zunnunova she'riyatida sintaktik takrorlar. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 186-192.
- Bazarova, S. H. (2021). Pre-processing of audio signals. *Мировая наука*, (1), 6-8.
- Sh, B. S. (2014). *Feminism and Korean Literature*. ЦЕНТР КОРЕЕВЕДЕНИЯ, 29.
- Murodbek, A. (2026). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA URUSH VA TINCHLIK KONSEPTUAL TAHLILINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR, 2(7), 429-433.
- Murodbek, A. (2026). O'ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTIDA "URUSH" VA "TINCHLIK" KONSEPTLARI ORQALI INSONIYLIK, EZGULIK VA ADOLAT G'OYALARINING BADIY IFODASI. YANGI RENESSANSDA ILM-FAN TARAQQIYOTI, 1(4), 348-351.
- Furkatovna, N. D. (2023). Analysis of Definitions of the Concept "Discourse" in Linguistics. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 12, 22-26.
- Sattorqul o'g'li, A. I., & Furkatovna, N. D. (2025). TEACHING SPEECH ACTS AND INTONATION AS MEANS OF EXPRESSING MOTIVATION TO ACTION. *TADQIQOTLAR*, 76(7), 181-183.
- Furkatovna, N. D. (2025). COMMUNICATIVE NORMS IN ENGLISH PHONETICS: FROM STANDARD TO NON-STANDARD VARIETIES. *AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING*, 3(9), 10-15.
- Richards M., Ford N. *Fundamentals of Software Architecture: An Engineering Approach*. Sebastopol: O'Reilly Media, 2020.
- Newman S. *Building Microservices: Designing Fine-Grained Systems*. 2-nashr. Sebastopol: O'Reilly Media, 2021.
- Burns B., Beda J., Hightower K. *Kubernetes: Up and Running*. 3-nashr. Sebastopol: O'Reilly Media, 2022.

Pedagogical Basis Of Professional Guidance Of Girls In Comprehensive Schools

Eraliyeva Mukaddas Ismatillayevna

Syrdarya region, Gulistan city
School 12, practicing psychologist

Annotation

This article analyzes the theoretical and practical foundations of vocational guidance of girls in comprehensive schools. Psychological, social and pedagogical factors influencing the process of choosing a profession for girls are highlighted, modern approaches and problems and their solutions are considered.

Keywords: profession, career choice, female students, motivation, pedagogy, gender approach, education, professional development

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchi qizlarni kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Qizlarning kasb tanlash jarayoniga ta'sir etuvchi psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar yoritilib, zamonaviy yondashuvlar hamda muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kasb-hunar, kasb tanlash, o'quvchi qizlar, motivatsiya, pedagogika, gender yondashuv, ta'lim, kasbiy rivojlanish

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat. Ayniqsa, o'quvchi qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki qizlarning jamiyatdagi o'rni, ularning iqtisodiy faolligi va mustaqilligi bevosita egallagan kasbga bog'liqdir.

Zamonaviy jamiyatda ayollarning faqat an'anaviy kasblar bilan cheklanib qolishi emas, balki turli sohalarda, jumladan, texnologiya, tadbirkorlik, muhandislik yo'nalishlarida ham faol ishtirok etishi muhimdir. Shu sababli maktab davridan boshlab qizlarni kasb tanlashga ongli ravishda tayyorlash zarur.

I bob. Kasb-hunarga yo'naltirishning nazariy asoslari

1.1. Kasb-hunarga yo'naltirish tushunchasi

Kasb-hunarga yo'naltirish – bu shaxsning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlaridan kelib chiqib, uni ma'lum bir kasbni tanlashga tayyorlash jarayonidir. Bu jarayon uzluksiz bo'lib, maktabgacha ta'limdan boshlab, umumta'lim maktablari va undan keyingi bosqichlarda davom etadi.

1.2. O'quvchi qizlarning psixologik xususiyatlari

O'quvchi qizlar kasb tanlashda quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

hissiylik va sezgirlik yuqoriligi;

ijtimoiy fikrga bog'liqlik;

barqarorlik va xavfsizlikka intilish;

kommunikativlik.

Bu xususiyatlar kasb tanlashda ularning qaroriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

II bob. O'quvchi qizlarni kasb-hunarga yo'naltirishning pedagogik omillari

2.1. Maktabning roli

Maktab kasbga yo'naltirishning asosiy maskani hisoblanadi. Bu yerda:

kasblar haqida tizimli bilim beriladi;

fanlar orqali qiziqish shakllantiriladi;

kasbiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.

2.2. O'qituvchi va psixolog faoliyati

O'qituvchi va maktab psixologi quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash;
- psixologik testlar o'tkazish;
- individual maslahatlar berish;
- kasb tanlashda yo'l-yo'riq ko'rsatish.

2.3. Oila ta'siri

Oila qizlarning kasb tanlashida eng katta ta'sirga ega omillardan biridir. Ayrim hollarda ota-onalar o'z istaklarini farzandiga yuklaydi, bu esa noto'g'ri tanlovga olib kelishi mumkin.

III bob. Zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar

3.1. STEAM ta'lim tizimi

STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvi qizlarning texnik va ilmiy sohalarga qiziqishini oshiradi.

3.2. Trening va seminarlar

Kasbiy treninglar orqali o'quvchi qizlar:
o'z qobiliyatlarini aniqlaydi;
turli kasblar bilan tanishadi;
amaliy tajriba orttiradi.

3.3. Mentorlik tizimi

Muvaffaqiyatli ayol mutaxassislar bilan uchrashuvlar qizlar uchun motivatsiya manbai bo'lib xizmat qiladi.

IV bob. Muammolar va ularning yechimlari

4.1. Asosiy muammolar

gender stereotiplari;
kasblar haqida yetarli ma'lumotning yo'qligi;
ota-onalarning bosimi;
maktablarda tizimli ishlarning yetarli emasligi.

4.2. Yechimlar

kasbga yo'naltirish dasturlarini kuchaytirish;
ota-onalar bilan ishlash;
zamonaviy kasblar haqida targ'ibot;
qizlar uchun maxsus kasbiy loyihalar tashkil etish.

V bob. O'quvchi qizlarni kasb tanlashga tayyorlashda psixologik-pedagogik yondashuvlar

5.1. Kasbiy qiziqish va motivatsiyani shakllantirish

Kasb tanlash jarayonida eng muhim omillardan biri — motivatsiyadir. O'quvchi qizlarda motivatsiya quyidagi yo'llar orqali shakllanadi:

- ichki motivatsiya (qiziqish, orzu, o'zini namoyon qilish istagi);
- tashqi motivatsiya (ota-ona, o'qituvchi, jamiyat ta'siri);
- muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji.

Pedagoglar o'quvchi qizlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Chunki aynan ichki motivatsiya barqaror kasbiy rivojlanishga olib keladi.

5.2. Kasbiy yo'naltirishda diagnostika usullari

O'quvchi qizlarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- psixologik testlar (qiziqishlar testi, temperament aniqlash);
- so'rovnomalar;
- suhbat va kuzatish;
- amaliy topshiriqlar.

Masalan, o'quvchining muloqotga moyilligi yuqori bo'lsa — pedagogika, xizmat ko'rsatish sohalari; analitik fikrlashi kuchli bo'lsa — IT yoki iqtisodiyot yo'nalishlari tavsiya etilishi mumkin.

VI bob. Xorijiy tajribalar va ularning ahamiyati

6.1. Rivojlangan davlatlar tajribasi

Ko'plab rivojlangan davlatlarda qizlarni kasbga yo'naltirishga alohida e'tibor qaratiladi:

maktablarda kasb haftaliklari o'tkaziladi;

o'quvchilar ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyaga olib boriladi;

har bir o'quvchiga individual kasbiy reja tuziladi.

Masalan, Yevropa davlatlarida o'quvchilar 13–14 yoshdan boshlab kasbiy yo'nalishga ajratiladi.

6.2. Xorijiy tajribani milliy tizimga moslashtirish

Xorijiy tajribani joriy etishda quyidagilar muhim:

milliy qadriyatlarni hisobga olish;

mahalliy mehnat bozoriga moslashish;

qizlar uchun teng imkoniyat yaratish.

VII bob. Raqamli texnologiyalar asosida kasbga yo'naltirish

7.1. Onlayn platformalar

Bugungi kunda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

kasb tanlash testlari (online);

virtual kasb tanishtiruvlar;

video darslar va master-klasslar.

Bu vositalar ayniqsa qizlarning mustaqil o'rganishiga yordam beradi.

7.2. Ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri

Ijtimoiy tarmoqlar orqali:

muvaffaqiyatli ayollar hayoti bilan tanishish;

yangi kasblar haqida bilish;

o'zini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Lekin noto'g'ri axborotlardan himoyalash ham muhim.

VIII bob. Amaliy tavsiyalar

O'quvchi qizlarni kasb-hunarga samarali yo'naltirish uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

Maktab uchun:

“Kasb kuni” tadbirlarini tashkil etish

turli soha vakillari bilan uchrashuvlar

qizlar uchun alohida to'garaklar (IT, dizayn, tikuvchilik, tadbirkorlik)

O'qituvchilar uchun:

individual yondashuv

qiziqishni rag'batlantirish

stereotiplarni yo'qotishga yordam berish

Ota-onalar uchun:

farzand tanloviga hurmat bilan qarash

majburlamaslik

qo'llab-quvvatlash

IX bob. Tadqiqot uchun taklif (agar ilmiy ish bo'lsa)

Agar siz bu mavzuda kurs ishi yoki ilmiy ish topshirsangiz, quyidagicha kichik tadqiqot qo'shishingiz mumkin:

Tadqiqot mavzusi:

“Maktab o'quvchi qizlarining kasb tanlashga bo'lgan munosabati”

Metodlar:

20–30 nafar o'quvchi orasida so'rovnoma natijalarni diagramma qilish tahlil va xulosa chiqarish.

Xulosa

O'quvchi qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish – ularning kelajakdagi hayot sifatini belgilovchi muhim jarayon hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi bu borada innovatsion yondashuvlar, psixologik xizmatlar va raqamli texnologiyalarni keng qo'llashi zarur. Ayniqsa, gender tengligini ta'minlash orqali qizlarning barcha sohalarda o'z o'rnini topishiga sharoit yaratish muhim vazifa hisoblanadi.

O'quvchi qizlarni kasb-hunarga yo'naltirish – bu faqat ta'lim tizimining emas, balki jamiyatning ham muhim vazifasidir. To'g'ri yo'naltirilgan qiz kelajakda nafaqat o'z hayotini, balki jamiyat rivojini ham ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shu sababli bu jarayonda maktab, oila va jamiyat hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

Ismoilov A. "Pedagogika asoslari". Toshkent, 2020.

Yo'ldoshev J. "Kasbga yo'naltirish nazariyasi va amaliyoti".

Karimova V. "Psixologiya". Toshkent, 2019.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha o'quv qo'llanmalar.

Internet manbalari va ilmiy maqolalar.

Comparative Analysis Of The Works "Tristan And Isolde" And "Iliada"

Akbaraliyeva Khurshida Kamoliddin qizi

1st year student, group 25.178

Annotation

This article comparatively studies two great works of world literature - the medieval European epic "Tristan and Isolde" and the ancient Greek epic "Iliad". The plot of the works, the system of artistic images, the interpretation of the themes of war and love, and universal values are compared. As a result of the study, the similarities and differences of heroism, tragedy, and human feelings in both works are identified.

Keywords: comparative literary studies, epic epics, heroism, love, tragedy, medieval literature, ancient Greek literature.

Annotatsiya

